



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

1-SINFDA OG'ZAKI METOD YORDAMIDA QO'SHIQ O'RGATISH METODIKASI

Kenjebaeva Sabira Saylauovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Musiq ta'limi kafedrası docenti

Matnazarova Barshinay Ongarbay qızı

Ajiniyoz nomidagi NDPI Pedagogika-psixologiya va ijodiy ta'lim fakulteti Musiq ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinf o'quvchilarida o'qish va savodxonlik ko'nikmalari hali to'liq shakllanmagan davrda musiqa qo'shiq aytishni o'rgatish muammolari tadqiq etiladi. Muallifning amaliy pedagogik tajribalari asosida an'anaviy yozma matn tarqatish usulidan voz kechib, axborotni og'zaki-musiqiy xotira hamda ichki ritm tuyg'usi orqali yodlatish samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: musiqa pedagogikasi, 1-sinf, og'zaki an'ana, qo'shiq o'rgatish metodikasi, musiqiy idrok, nota savodi, musiqiy ritm.

Umumiy o'rta ta'lim tizimining dastlabki bosqichi, ya'ni 1-sinf o'quvchilarning endi moslashish davri bo'lib, o'ziga xos psixofiziologik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quv yilining birinchi yarmida 6-7 yoshli bolalarda asosan yozma nutq va tez o'qish malakalari shakllanish jarayonida bo'ladi. Amaldagi musiqa o'qitish metodikasida esa ko'pincha o'quvchilarga qo'shiq matnini qog'ozda tarqatish yoki sinf doskasiga yozib, o'qib yodlatish amaliyoti kuzatiladi. Ammo, savodxonlik darajasi yetarli bo'lmaganligi sabab bunday yondashuv bolada ikki yoqlama vizual va intellektual yuklamani keltirib chiqarishi mumkin. Ya'ni bola bir vaqtning o'zida ham notanish harflarni o'qishga, shu bilan birga kuy ohangini ilg'ab olishga majbur bo'ladi. Natijada esa bolada darsga bo'lgan hissiy qiziqishi so'nadi.

Vaholanki, o'zbek xalq milliy musiqa merosi, xususan, baxshichilik va dostonchilik san'ati asrlar davomida yirik hajmdagi asarlarni faqatgina og'zaki usulda, uzluksiz eshitish orqali avloddan-avlodga o'tkazishning mukammal "Ustoz-shogird" tizimini yaratgan. 1-sinf o'quvchilarining musiqiy tarbiyasida ushbu qadimgi og'zaki an'ananing pedagogik elementlarini zamonaviy sinf xonasiga modellashtirish, boladagi psixologik to'siqlarni chetlab o'tgan holda musiqiy eshitish va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot ishi pedagogik amaliyot davomida 1-sinf o'quvchilari faoliyatini kuzatish va eksperiment o'tkazish orqali amalga oshirildi. Dars jarayonlarini tashkil etishda esa Davlat ta'lim standartlari talabiga tayangan holda olib borildi hamda quyidagi tizimli pedagogik metodlar majmuasi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etildi:

Og'zaki-musiqiy takrorlash va eshitish orqali yodlash metodi. Bunda qo'shiq aytish jarayonida o'quvchilarga hech qanday matnli va yozma materiallar berilmadi. Aksincha, ustoz qo'shiqni jonli ijroda to'liq va hissiy bo'yoqlarga boy tarzda ijro etib beradi. Qo'shiq



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

matni esa she'riy emas, balki musiqiy o'lchov ritmiga qat'iy rioya qilingan holda, bo'g'in shaklida ustoz tomonidan aytiladi. Undan tashqari o'quvchilar eshitgan musiqiy jumlaning xor bo'lib, xuddi ohang kabi qaytaradilar. Bu jarayon xalq dostonchiligidagi ustoz ortidan kuy nolasini takrorlash prinsiplariga tayanadi.

Amaliyot davomida o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari an'anaviy dars o'tish tizimiga qaraganda juda yuqori samaradorlik ko'rsatkichlarini namoyon etadi. Natijalarga keladigan bo'lsak, o'quvchilar matnni yozma o'qiy olmasalar-da, kuyning ichki ritmik hissi va metrik o'lchoviga tayangan holda, qo'shiq so'zlarini talaffuz va intonatsiya jihatidan aniq va qisqa vaqt ichida yod olishga muvaffaq bo'ldilar. Bolalarda musiqiy eshitish apparati vizual chalg'ituvchi omillar yo'qligi sababli faqat tovush to'lqiniga va ohangga konsentratsiya bo'ldi. Shu bilan birga, savodxonligi past o'quvchilarda yuzaga keladigan o'qiy olmaslik qo'rquvi hamda psixologik komplekslar musiqiy muhitda butunlay yo'qoldi.

Xulosa qilib aytganda, 1-sinf musiqi savodxonligi darslarida matn va notani mexanik tarzda o'qitish o'rniga xalq og'zaki an'analari asoslangan eshitish, takrorlash va elementar vizual o'yin uslublari joriy etish eng maqbul pedagogik yondashuv hisoblanadi. Bunday metodlarni qo'llash nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki kelajakda bolalarning umumiy savodxonligi va nutq madaniyatining ham tezroq hamda ravonroq shakllanishiga kuchli musiqiy zamin tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldosheva S. "Musiqi o'qitish metodikasi".- Toshkent: "Barkamol fayz mediya", 2021.
2. Panjiyev Q. "O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilar musiqiy madaniyatini shakllantirish".- Toshkent: "O'qituvchi", 2022.
3. Sharipova G. "Musiqi o'qitish metodikasi va maktab repertuari".-Buxoro: "Durdona", 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Umumiy o'rta ta'limning musiqi madaniyati fani bo'yicha Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari".- Toshkent, 2021.